

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI ASOSLARI FANINIG MAZMUN-MOHIIYATI

Saidova Zilola Gadoymurodovna

Farg‘ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Zamonaviy dunyoda shaxsning, shuningdek, butun jamiyat hayotining xavfsizligini ta‘minlash masalalari tobora ortib bormoqda. Ilmiy asos xavfsizlikning umumiy nazariyasidir. Bugungi kun uchun jiddiy muammo bo‘lgan va uni hal qilish uchun boshqa ko‘plab fanlardan foydalangan holda hayot faoliyati xavfsizligi o‘z terminologiyasi, kontseptual sxemalari, nazariy asoslari, tadqiqot usullarini ishlab chiqdi.

Kalit so‘zlar: qadriyat, Xavfsizlik, shaxs, dunyoqarash, tatbiq, rivojlantirish

Abstract: In the modern world, the issues of ensuring the safety of the individual, as well as the life of the entire society, are increasing. The scientific basis is a general theory of security. Being a serious problem for today and using many other disciplines to solve it, life safety has developed its own terminology, conceptual schemes, theoretical foundations, and research methods.

Key words: value, Security, personality, outlook, implementation, development

Аннотация: В современном мире обостряются вопросы обеспечения безопасности личности, а также жизни всего общества. Научная основа – общая теория безопасности. Являясь серьезной проблемой на сегодняшний день и используя для ее решения множество других дисциплин, безопасность жизнедеятельности разработала собственную терминологию, концептуальные схемы, теоретические основы и методы исследования.

Ключевые слова: ценность, Безопасность, личность, мировоззрение, реализация, развитие.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida mehnat muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Eng qadimgi iptidoiy davrdan boshlab dastlabki odamlar hayotda yashab qolishlari uchun qaysidir ehtiyojlarini qondirish maqsadida mehnat faoliyatini bilan shug‘ullana boshlashgan. Ular doimiy ravishda mehnat qilish jarayonida turli xil xavf-xatarlarga duch kelishgan. Ularning tafakkuri rivojlanib, mehnat qurollarini takomillashtirishgandan keyin turli xil himoya vositalari va usullarini o‘ylab topishgan. Bu esa ularning hayot faoliyati xavfsizligini ta‘minlagan. Shundan ham bilish mumkinki, insoniyat eng qadimgi zamonlardan oq hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasiga e‘tibor berishgan.

“Hayot faoliyati xavfsizligi”ni o‘quv va ilmiy fan sifatida tatbiq etish va o‘rganish shaxs va jamiyatda yangi ishlab chiqarish sharoitida insonlarning hayotiy faoliyati xavfsizligiga doir qadriyatlar va maqsadlar to‘g‘risida dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, oliy ta‘lim, ilmiy-tadqiqot va ilmiy ishlarni rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Mazkur fan yo‘nalishida shaxs va jamiyatni rivojlantirish uchun tarmoq va umumiy milliy siyosatni belgilash va amalga oshirish bo‘yicha harakatlarni amalga oshiriladi.

Xavfsizlikning umumiy konsepsiyasi esa insoniyat va kishilik jamiyatini tanazzulga olib keladigan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yo‘qolishi yoki zarar yetkazishi hamda rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlarni o‘rganish, oldini olish, kamaytirish, yo‘q qilish bo‘yicha faoliyati sifatida mantiqiy asosdir. Shu tufayli ham o‘rta maktab va oliy o‘quv yurtlari o‘quvchi-talabalarini hayot faoliyati xavfsizligining asosiy

tamoyillariga o’rgatish maqsadida integratsiyalashgan va alohida o’quv predmeti sifatida o’rgatish yo’lga qo’yilgan.

Zamonaviy dunyoda shaxsning, shuningdek, butun jamiyat hayotining xavfsizligini ta’minlash masalalari tobora ortib bormoqda. Ilmiy asos xavfsizlikning umumiy nazariyasidir. Bugungi kun uchun jiddiy muammo bo’lgan va uni hal qilish uchun boshqa ko’plab fanlardan foydalangan holda hayot faoliyati xavfsizligi o’z terminologiyasi, kontseptual sxemalari, nazariy asoslari, tadqiqot usullarini ishlab chiqdi.

Fan sifatida hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashning aralash tizimi: “nazariya - amaliyot – ta’lim”ni ishlab chiqish zarurati paydo bo’ldi. Fan doirasida barcha modullar inson faoliyatining ushbu sohasini kompleks tadqiq qilish, o’rganishga qaratildi va bundan keyin ham takomillashib borishi kerak. Hayot faoliyati xavfsizligi ilmiy fan va mavzu sifatida xavf va tahdidlarning paydo bo’lishi va rivojlanishini tartibga soluvchi tamoyillarni hamda jamiyatni (shaxslarni, ularning guruhlarini, insoniyatni) samarali himoya qilish vositalarini o’rganish bilan bog’liq bo’lishi kerak.

Hayot faoliyati xavfsizligini amalga oshirish “Hayot faoliyati xavfsizligi” madaniy-ma’rifiy soha sifatida jamiyatda yangi xavfsizlik madaniyatini shakllantirish vositasi bo’lib, birinchi navbatda har qanday xavf-xatarlardan qochishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak. Xavfsizlikning yangi madaniyati barqaror rivojlanishga o’tishning asosiy sharti bo’lib, kelajak avlodlarning xavfsiz yashash huquqini ta’minlaydi.

Uning yaratilishi insoniyat sivilizatsiyasi yo’nalishini o’zgartirishga hissa qo’shishi kerak bo’lgan yangi dunyoqarashni shakllantirish zarurati bilan bog’liqdir. Zero, doimiy o’sib borayotgan moddiy ehtiyojlarni tabiiy resurslardan beg’araz foydalanish hisobiga maksimal darajada qondirish, tabiiy biosferaning “iqtisodiy imkoniyatlari” doirasida, inson yashashi uchun yaroqli yagona muhitni yaratish eng dolzab muammo sifatida namoyon bo’lmoqda.

Xavfsizlik madaniyati shaxs, jamiyat va davlat, shuningdek, butun insoniyat manfaatlariga mutanosib ravishda shakllantirilishi kerak. Zamonaviy xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayoni odatiy harakatlarga asoslangan an’anaviy madaniyatdan nafaqat reaksiyaga, balki prognoz va xavfning oldini olish usullariga asoslangan zamonaviy madaniyatga o’tishni nazarda tutadi. Zamonaviy xavfsizlikning maqsadi - bugungi o’zgargan sharoitda shaxsiy, kasbiy, milliy va global miqyosda shaxsiy xavfsizlik masalasiga kompleks yondashuv orqali dunyoqarash qadriyatlarini, shaxsiy va ijtimoiy xavfsizlik maqsadlarini yaratishdir.

Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari fani - ilmiy metodologik fanlar qatoriga kirib, uning asosiy maqsadi, inson hayot faoliyatida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini va ularni yo’qotish usullarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen va ekologik favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilish, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan himoyalanihga tayyorlash hamda jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko’rsatish qoidalarini o’rgatishdan iborat.

Hayot faoliyati xavfsizligi asoslari fanining markaziy e’tiborida “inson – tabiat - jamiyat” rivojlanishining maqsadlari yotadi. Shunday ekan, o’quvchi-yoshlarga yoshligidanoq hayoti davomida xavfsiz harakat qilish, xavf-xatar paydo bo’lgan paytda o’zini yoqotib qo’ymaslik va to’g’ri harakatlanishni o’rgatib borish lozim. O’quvchilarda hayot faoliyati xavfsizligini o’rgatishda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish yuqori samaradorlikka olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Baxriddinova N.M., Sulaymanov S.S. Hayot faoliyati xavfsizligi. -Buxoro, 2019. - 263 bet.
2. Gazinazarova S., Ibragimov E., Yuldashev O., Asilova S. Hayot faoliyati xavfsizligi. - T., 2010.
3. Ishmuxamedov R.J. Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: “Nihol” nashriyoti, 2013.
4. Nigmatov I., Tojiyev M. X. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. Darslik. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. -260 b.